

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**
760 /22-LS - sonli

Samarqand sh.

25 August 2022 yll

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi direktor o'rmosari K.Ximmatkulov bir tomonidan va YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi D. Axmedov ikkinchi tomonidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 23.08.2022 yildagi 35258-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: **Samarqand Charmgari MFY Amur ko'chasi** ichki yo'llini joriy ta'mirlash bo'yicha loyixa smeta (**Uchastik №2**) belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 7 500 571 (yetti million besh yuz ming besh yuz yetmish bir) so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiriladi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlari pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'ttiz) bank kuni mobaynidagi «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovni amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklar uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovni amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishi «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanish, «Bajaruvchi»ning roziligidiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlami tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlari o'z vaqida o'tkazilмагan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddatini ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtiga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytadan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zarami to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rioya qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklar yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilgan qo'shimcha ishlarni va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'ladi.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosa va ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amalidagi qonun xujjalari muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshirida belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergen taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlma dalolatnomaga tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlarga uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilganidan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (besh) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlma bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergen vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqtini hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosa uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMoyalash

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaligi tabiat hodisalarini va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar atijasida kelib chiqsa va agar ushu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushu holatlar ro'y bergan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qildilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rivoj qilish va ushu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarغا ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushu shartnomaning bajarishni rad etishga haqlidir. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihami muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovni amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'lli bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilmagan holda uchinchiligi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jalb qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga va «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlari uchun qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'lli bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'lli bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiyematining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlarni qiyematining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limgan ro'yxtidan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 304521860184017045990118932

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED:70220

Direktor o'rindosari: K. Xummatkulov



"BAJARUVCHI"

Nomi: "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MCHJ

Manzili: Toshkent sh. Olmazor tumani Berunly 2-uy 15-xona

Bank nomi: "Ipoteka-bank" Olmazor filiali

X/R: 2020 8000 8051 2411 5001

MFO: 00901

STIR: 306 714 958

OKNO: 96 120

Direktor: D. Ahmedov



Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rivoj qilingan bo'lsa tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarining shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist: C. Sardor

Yurist: _____

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi
Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1
STIR (INN) 201122919 MFO 00014 OKED:97160
Tel 2335853, 231-11-52

Ro'yxtatga olindi: K. Xummatkulov

BAYONI

Samarqand shahri
Raislik qiluvchi

K.Ximmatkulov

«25» 08 2022 y.

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinosbosari Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abdurayimov Sobir Mamarajabovich
Narmatov Xurshid Umrbayevich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i,
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK direktori S.Mamatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quiydagi

- | | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. Samarqand shahar Mendeleev ko'chasi 3. Samarqand shahar Ziyorlar mfy Al-Xorazmiy ko'chasi 5. Samarqand shahar Xo'jagunjoyish MFY Bogirohat 2-ko'chasi 7. Samarqand shahar Kushxavuz MFY Kushxavuz ichki ko'chasi 9. Samarqand shahar Imom Vose MFY Imom Vose ko'chasi 11. Samarqand tuman Diyor MFY Bog'ibaland ko'chasi 13. Bulung'ur tuman Yangi obod MFY A.Navoiko ko'chasi va 15. Samarqand tuman Yangi joy MFY ichki ko'chasi 17. Samarqand tuman Bo'zi MFY Botanika bog'iga borish ko'chasi | 2. Samarqand shahar Ilmobod MFY 6-proyezd ko'chasi 4. Samarqand shahar Panjob MFY Almedov 1-ko'chasi 6. Samarqand shahar Bunyodkor MFY gulobod 5-ko'chasi 8. Samarqand shahar Qoziariq MFY ichki ko'chalari 10. Kattaqo'rg'on tuman Yakkabog MFY Bogidilkusho ko'chasi 12. Samarqand tuman Safedi MFY Firot ko'chasi 14. Oqdaryo tuman A.Temur MFY Chilla ota qabristoniga borish yo'lli 16. Samarqand tuman Kovchinon MFY ichki ko'chasi 18. Samarqand shahar Charmgari MFY Amur ko'chalarini |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev,)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 13 avgust O'zbekiston Respublikasi Tovar xa xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 23 Avgustdag'i eng yaxshi takliflami tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portalni orqali shakillangan bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "**YO'L LOYIHA TARAQQIYOT**" MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib.

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyeklar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomasi bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i. X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 23 avgustdag'i elektron bayonnomalariga asosan "**YO'L LOYIHA TARAQQIYOT**" MChJ bilan qonunchilikda o'matilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olib "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQu mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish zavifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

| F.I.SH | Imzo | Lavozimi |
|---------------------------------|------|-------------------------------------------------------------|
| Sultanmurodov Elyor Erkinovich | | Korxona bosh muhandisi |
| Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich | | Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i |
| Bekmirzayev Azim Xasanovich | | Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i |
| Abduraimov Sobir Mamarajabovich | | Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i |
| Narmatov Xurshid Umrbayevich | | Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i |